

DEKORATIV SAN'ATDA "KITOBSEVAR INSON" OBRAZINI YARATISHNING NAZARIY VA BADIY-ESTETIK ASOSLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18385779>

Nazarova Marjona Ravshan Qizi.

Termiz davlat universiteti. Milliy libos va san'at fakulteti. "Badiiy grafika va dizayn" kafedrası. Tasviriy va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich.

Termiz davlat universiteti Registrator ofisi direktori. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. turayev@tersu.uz

Annotatsiya

Tasviriy va dekorativ san'atda "Kitobsevar inson" obrazining vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita jamiyatning intellektual darajasi shuningdek estetik qarashlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu mavzuning evolyutsiyasini tahlil qilar ekanmiz, u shunchaki predmet va inson munosabati emas, balki "Ruh va Ma'rifat" muloqotining badiiy ifodasi va yechimi to'g'risida ma'lumotlar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar

kitobsevar inson, dekorativ san'at, muloqotining badiiy ifodasi, erkin fikrlash, inqilobiy tafakkur, san'atshunoslikning qiyosiy-tahliliy metodlari, vizual kompozitsiya, G'arbiy Yevropa san'ati.

Аннотация

Возникновение и развитие образа «книголюб» в изобразительном и декоративно-прикладном искусстве напрямую связано с интеллектуальным уровнем общества, а также с его эстетическими взглядами. Анализируя эволюцию этой темы, мы видим не только взаимосвязь субъекта и человека, но и художественное выражение и решение диалога «Дух и Просвещение».

Ключевые слова

Книжный червь, декоративно-прикладное искусство, художественное выражение коммуникации, свободомыслие, революционное мышление, сравнительно-аналитические методы искусствоведения, визуальная композиция, западноевропейское искусство.

Abstract

The emergence and development of the image of the "Book-loving person" in the visual and decorative arts is directly related to the intellectual level of society, as well as its aesthetic views. Analyzing the evolution of this topic, it is not just a

matter of the relationship between the subject and the person, but also the artistic expression and solution of the dialogue "Spirit and Enlightenment".

Key words

bookworm, decorative arts, artistic expression of communication, freethinking, revolutionary thinking, comparative-analytical methods of art criticism, visual composition, Western European art.

Kirish (Introduction). Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar, jamiyat va xalq hayotidagi yangiliklar, teatr san'atining rivojlanishiga e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan rejissyorlar, aktyorlar, dramaturglar va teatrshunoslar oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, 2024-yilning 22-noyabr kuni e'lon qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 399-sonli qarorlarida ham aynan yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha muhim ko'rsatmalar belgilab berildi. Unga ko'ra, insonning jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Bugungi davrda jahon madaniyati va san'atida inson ma'naviyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatni oshirish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevori qo'yilayotgan bir davrda, yetishib kelayotgan yosh avlodni kitobga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va targ'ib qilishga doir farmon hamda qarorlari ushbu mavzuning nafaqat ijtimoiy, balki badiiy-estetik nuqtayi nazardan ham dolzarbligini belgilab beradi.

Tasviriy va dekorativ-amaliy san'atda "Kitobsevar inson" obrazini yaratish – bu shunchaki oddiy vizual tasvir emas, balki jamiyatning intellektual qiyofasini va siymosini badiiy shakllarda aks ettirishdir. Dekorativ kompozitsiya o'zining ramziylik, uslublashtirish (stilizatsiya) va dekorativ yaxlitlik kabi xususiyatlari bilan ushbu murakkab obrazni falsafiy jihatdan ancha chuqur ifodalash imkonini beradi. Biroq, an'anaviy tasvirlash usullari va uslublari bilan bir qatorda, zamonaviy raqamli texnologiyalar (kompyuter grafikasi, 2D va 3D modellashtirish) va innovatsion aralash texnikalarning dekorativ san'atga ancha jadallik bilan kirib kelishi bu sohada yangi badiiy yechimlarni tadqiq etishni talab qilmoqda. "Kitobsevar inson" obrazini ham an'anaviy dekorativ tamoyillar, ham zamonaviy

texnologik imkoniyatlar negizida o'rganish san'atshunoslik va badiiy ijod sohasidagi muhim ilmiy, ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiya ishini yozish jarayonida tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, san'atshunoslikning qiyosiy-tahliliy metodlari, badiiy-estetik interpretatsiya hamda kompozitsion modellash tirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, dekorativ san'at asarlarini yaratishda an'anaviy qo'l mehnatidan ham foydalanildi.

Tadqiqotning maqsadi. Dekorativ kompozitsiyaning badiiy-estetik tamoyillari hamda kulolchilik texnologiyalar asosida "Kitobsevar inson" obrazi modelini ishlab chiqish va uning amaliy yechimlarini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

"Kitobsevar inson" obrazini yaratishda kulolchilik san'atiga xos dekorativ stilizatsiya, plastik shakllantirish va ramziy ifoda usullariga asoslangan badiiy model ishlab chiqildi

Dekorativ kompozitsiyada inson obrazining ma'naviy-psixologik holatini ochib berishda kulolchilikda rang (angob va sir), faktura va hajmning estetik mutanosibligi ilmiy jihatdan asoslab berildi

"Kitobsevar inson" mavzusini ifodalashda kulolchilik san'atida an'anaviy texnikalar va aralash usullarning badiiy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning obraz yaratishdagi samaradorligi isbotlandi

Natija va munozara. Insoniyat rivojlanishi tarixida kitob nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy yuksalish, tafakkur o'chog'i va ilohiy ma'rifatning ham ramzi bo'lib kelgan. Tasviriy va dekorativ san'atda "Kitobsevar inson" obrazining vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita jamiyatning intellektual darajasi shuningdek estetik qarashlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu mavzuning evolyutsiyasini tahlil qilar ekanmiz, u shunchaki predmet va inson munosabati emas, balki "Ruh va Ma'rifat" muloqotining badiiy ifodasi va yechimi ekanligini ko'ramiz.

Sharq uyg'onish davrida va miniatyura san'atida kitob obrazi. Markaziy Osiyo va butun Islom dunyosi san'atida kitob va mutolaa mavzusi o'ziga xos katta va muqaddaslik kasb etgan. Sharq miniatyura maktablarida, xususan, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi buyuk ustalar ijodida ham kitob mutolaa qilayotgan donishmand, shoh yoki yosh shogird obrazlari tez-tez uchratamiz. Bu tasvirlarda kitob nafaqat – insonni dunyo tashvishlaridan ajratibgina qolmay balki, ichki xotirjamlik va kashfiyotlar olamiga olib kiruvchi ko'priklar vazifasini ham o'tagan. Miniaturalarda kitobsevar inson obrazi o'ta nafis chiziqlar va dekorativ elementlar, ramziy ranglar va bezaklar qurshovida berilgan. Kitobning ochilgan sahifalari, uning muqovasidagi naqshlar va mutolaa qilayotgan insonning nigohi

orqali san'atkor o'quvchiga "ilmning nur ekanligi" yani ilm benihoya muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi falsafiy g'oyani yetkazgan.

Obrazning falsafiy evolyutsiyasi. Vaqt o'tishi bilan "Kitobsevar inson" obrazi badiiy san'at dunyosida transformatsiyaga uchradi. Agar klassik davrlarda kitob o'qiyotgan odam tasviri oliyjanoblik va donishmandlikni ifodalagan bo'lsa, XIX-XX asr san'atida u ko'proq erkin fikrlash, inqilobiy tafakkur va shaxsiy izlanishlar timsoliga ham aylandi. Zamonaviy dekorativ san'atda esa kitob va inson munosabati yanada ramziylashib, metaforik xarakter kasb etmoqda. Endilikda kitob nafaqat qog'ozlar to'plami bo'libgina qolmay, balki inson hayotini yorituvchi nur, parvoz qilayotgan qush yoki hayot daraxti kabi dekorativ shakllarda talqin qilinmoqda.

Obrazning falsafiy evolyutsiyasi. Vaqt o'tishi bilan "Kitobsevar inson" obrazi badiiy san'at dunyosida transformatsiyaga uchradi. Agar klassik davrlarda kitob o'qiyotgan odam tasviri oliyjanoblik va donishmandlikni ifodalagan bo'lsa, XIX-XX asr san'atida u ko'proq erkin fikrlash, inqilobiy tafakkur va shaxsiy izlanishlar timsoliga ham aylandi. Zamonaviy dekorativ san'atda esa kitob va inson munosabati yanada ramziylashib, metaforik xarakter kasb etmoqda.

G'arb san'atida mutolaa mavzusining badiiy talqini. G'arbiy Yevropa san'atida, xususan, Uyg'onish va Barokko davrlarida kitobga nisbatan munosabat



biroz boshqacha bo'lgan – ko'proq realistik va psixologik talqinda shakllangan. Yan Vermeer, Rembrandt, Jan-Onore Fragonar kabi rassomlar asarlarida kitob o'qiyotgan ayol yoki olim obrazlari orqali san'atkor insonning ichki kechinmalari, yolg'izligi va intellektual dunyosini mahorat bilan ochib berilgan. Bu yerda kitob – insonning ijtimoiy maqomi va ma'naviy boyligining belgisi va namoyondasi sifatida gavdalanadi. Dekorativ nuqtayi nazardan esa, kitobning teksturasi,

qog'ozning rangi va yorug'likning sahifalarga tushishi kompozitsion markazni belgilashda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Estetik tamoyillarning ahamiyati. Dekorativ kompozitsiyada ushbu obrazni yaratishda ranglar psixologiyasi va shakllar ritmi hal qiluvchi muhim rol o'ynaydi. **Xulosa qilib aytadigan bo'lsak.** Kitobsevar inson obrazini yaratishda rassom ko'pincha tinchlantiruvchi ranglar (ko'k, yashil, tilla ranglar) orqali mutola jarayonidagi intellektual sukunatni ifodalaydi. Stilizatsiya qilish jarayonida insonning harakati, qo'llarining holati va nigohi kitob bilan yagona kompozitsion bir butunlikni tashkil etishi kerak. San'at tarixida inson va kitob munosabati shunchaki vizual kompozitsiyabo'libgina qolmay, balki "fikrning moddiylashishi" sifatida ifoda etilgan. Dunyo tan olgan buyuk rassomlarning asarlari va ularning nazariy ishlari tahlil qilinsa, kitob obrazi vaqt o'tishi bilan turli estetik funksiyalarni bajarganini ko'rish mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik texnologiya: taxlil, ta'rif, mulohaza. Ma'rifat, 1998.
2. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi –Toshkent: RTM, 1999.
3. Hasanov R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o'qitish konsepsiyasi. – Ma'rifat, 2005. 26 yanvar.
4. Hasanov R. Tasviriy san'atni tabaqalashtirib o'qitish. - Xalq ta'limi jurnali. 2004. 6-son.
5. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta'lim muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali. – 2003 . 2-son.
6. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Fan. 2004.
7. Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. – Toshkent: O'zPFITI. 2005.